


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning hajmi joriy narxlarda 93 433,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 5,1 %ga o'sdi. Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi 2021- yil yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 108,1 %ni tashkil qildi.


***Yalpi hududiy mahsulot (YHM)** – milliy hisoblar tizimining asosiy kўrsatkichi bўlib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turлари bўyicha yalpi qўshilgan qiyamat hajmi va mahsulotlarга соф солиqlar йигиндиси орқали ҳисобланади.*

2021-2022 yil yanvar-dekabr oylari uchun Yalpi hududiy mahsulot fizik hajmi va deflyator indeksi dinamikasi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da).



**Yanvar-dekabr oylarida Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**

*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)*




Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari Yalpi hududiy mahsulot o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi.


Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 104,0 % (yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi – 22,1 %), sanoat – 105,1 % (47,9 %), qurilish – 107,7 % (5,8 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 111,7 % (6,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 109,4 % (4,6 %) hamda boshqa xizmat tarmoqlari – 101,4 % (13,3 %)ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi hududiy mahsulot 31 499,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 %ga o'sdi. O'tgan yilning shu davrida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 28 206,4 ming so'mni va 111,7 %ni tashkil qilgan.

Aholi jon boshiga hisoblangan  
Yalpi hududiy mahsulot hajmi  
(joriy narxlarda, ming so‘m)




Aholi jon boshiga hisoblangan  
Yalpi hududiy mahsulot o‘shish sur‘atlari  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Respublika bo‘yicha 2022- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon yuoshiga hisoblangan Yalpi ichki mahsulot hajmi 24 919,7 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 %ga o‘sdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 21 149,2 ming so‘mni va 105,3 %ni tashkil qilgan.

**Yanvar-dekabr oylarida Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda  
kichik biznesning yalpi qo‘shgan qiymati hajmi**

*(mlrd. so‘mda)*




2022- yilda kichik tadbirkorlikning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 46,5 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan bog‘liq.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi**


*(yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan)*



**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
Yalpi hududiy mahsulotning ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>Fizik hajm indeksi, %da</i>
	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	
<b>I.Yalpi hududiy mahsulot - jami</b>	<b>82 221,8</b>	<b>93 433,1</b>	<b>105,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	79 076,5	89 786,6	105,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	3 145,3	3 646,5	106,5
<b>II.Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>79 076,5</b>	<b>89 786,6</b>	<b>105,0</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>17 795,7</b>	<b>19 843,6</b>	<b>104,0</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>42 869,2</b>	<b>48 156,6</b>	<b>105,3</b>
sanoat	38 866,6	42 981,3	105,1
qurilish	4 002,6	5 175,3	107,7
<b>Xizmatlar</b>	<b>18 411,6</b>	<b>21 786,4</b>	<b>105,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 469,5	5 637,8	111,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	3 551,3	4 129,1	109,4
boshqa xizmat tarmoqlari	10 390,8	12 019,5	101,4

2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)




Yuqorida keltirilgan diagrammada ko'rinib turibdiki, Xizmatlar sohasining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 2021- yildagi 23,9 %dan 2022- yilda 24,5 %ga, qurilish tarmog'ining ulushi 5,0 %dan 5,6 %ga oshdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 22,9 %dan 21,7 %ga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida jami xizmatlar sohasining ulushi 24,2 %ga to'g'ri keldi, jumladan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 6,3 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 4,6 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 13,3 %ni tashkil etdi.


**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi**  
(jamiga nisbatan)



*Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida jami xizmatlar ulushi 23,2 %ga to'g'ri kelgan, jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 5,7 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 4,5 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 13,0 %ni tashkil etgan.*

2022- yil uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 22,1 %), sanoatda – 105,1 % (47,9 %), qurilishda – 107,7 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 105,4 %ni (24,2 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,7 % (6,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,4 % (4,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,4 %dan (13,3 %) iborat bo'ldi.



**Yanvar-dekabr oylarida Yalpi hududiy mahsulotning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



2022- yil yanvar-dekabr oylarida Yalpi hududiy mahsulot deflyatori indeksi 2021- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 108,1 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilish sohasida – 120,0 %, savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlarida – 112,9 % qayd etildi.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Yalpi hududiy mahsulot** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

**Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot** – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo'shilgan qiymat** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)** doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi** - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.